

**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ MADANIYATINI  
SHAKLLANTIRISH METODIKASI***Ochilova Fayyoza Mansurovna**Qashqadaryo viloyati Shahrisabz davlat pedagogika  
instituti boshlang'ich ta'lif kafedrasini o'qituvchisi*

**Annotation:** the main task of primary class mother tongue classes is to prepare students for educational activities, to form a person who can enter into communication with others, to convey his opinion in a way that is understandable to others.

**Keywords:** theoretical methodological, basis, tool, form, technology, educational content, organizational, methodological, psychological, speech, speech culture, primary class, students, methodology, native language classes.

**Аннотация:** основная задача уроков родного языка в начальных классах состоит в подготовке учащихся к учебно-познавательной деятельности, формировании личности, способной вступать в общение с окружающими, передавать свое мнение понятным для окружающих способом.

**Ключевые слова:** теоретико-методический, базовый, инструментальный, форма, технология, содержание обучения, Организационный, методический, психологический, речь, культура речи, начальный класс, учащиеся, методика, уроки родного языка.

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf ona tili darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarini o'quv-biluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Nazariy metodik, asos, vosita, shakl, texnologiya, ta'lif mazmuni, tashkiliy, uslubiy, psixologik, nutq, nutq madaniyati, boshlang'ich sinf, o'quvchilar, metodika, ona tili darslari.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lif muassasalari, xususan, boshlang'ich ta'lif o'quvchilari ta'limi tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining — Ta'lif to'g'risidagi Qonuniga muvofiq Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi tasdiqlanib, u «milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, mehnat ko'nikmalari, ijodiy tafakkur, tevarak olamga va kasb tanlashga ongli munosabat negizida fan asoslari bo'yicha tizimli bilimlar olinishini ta'minlash, bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyojni kuchaytirish, tayanch o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish»ga yo'naltirilgan.

Xususan, boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzARB masala hisoblanadi. Nutq to'g'riliGI ustida ishslash boshlang'ich sinf O'quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o'qituvchining o'quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'naliShlardan biri sanaladi. Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o'rIN egallagan. Forobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq sohibi bo'lism haqida shunday deydi: - Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisi, jismlarga, ya'ni substansiya

(mustaqil, o'z-o'zidan mavjud) va aksidensiya (tasodifan namoyon)lariga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Ikkinci ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan ismlarni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidentiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijani ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

Uchinchi ilm logikadir: u ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logic figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi, bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to'g'ri va nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz. Nutq atamasi arabcha so'zdan olingan bo'lib, so'zlash, nutq; gapirish qobiliyati ma'nosini bildiradi. Tilning fikr ifodalash va almashish jarayonlarida amal qilishi; so'zlovchining til vositalaridan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi.

Ma'lumki, inson hayotida nutq va tafakkurning o'rni va roli qadimdan ko'pchilikni qiziqtirib keladi. Forobiy, Zamashshariy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos

Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar o'z asarlarida nutqni mahnaviy kamolot belgilaridan biri sifatida qayd etganlar. Jumladan, Forobiy so'zlash quvvati haqida shunday deydi: —...so'zlash quvvati (nutq) shunday quvvatki, uning yordamida inson bilim va hunar egallaydi, uning yordamida xulq-atvoridagi xunuk va go'zal harakatlarni ajrata biladi va bajarilishi zarur bo'lgan-bo'limgan ishlarni ado etadi, shu bilan birga zararli va foydali narsani, lazzatli va achchiq narsalarni fahmlaydi.

## NATIJALAR

M.Koshg'ariyning —Devon-u lug'otit turk asarida —Adab boshi – til maqoli keltirilgan. Bu buyuk ajdodlarimizning inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishida tilning nechog'li ahamiyatli ekanligiga urg'u bergenini ko'rsatadi.

Yusuf Xos Hojib insonda uquv-idrok va bilim til, so'z orqali a'yon bo'lismeni aytib, nutqning ravon bo'lismiga da'vat etadi: —o'quv va bilimning tilmochi, tarjimon tildir.

Kishiga ro'shnolik, yaxshilik va ezguliklar til tufayli keladi, buni yaxshi bilib olish

kerak. Qut-izzatni ham, obro’-e‘tiborni ham kishi til orqali topadi.

Hech qachon ko’p gapirma. Juda oz so’zla. Tuman so’z tugunini bitta so’z bilan yozib yubor, ya‘ni oz so’zlarga ko’proq ma‘no singdirish payidan bo’lgan.

Kaykovus o’zining —Qobusnama asarida so’zlash madaniyati quyidagicha e‘tirof etadi: —... xalq oldida gapirganda so’zing go’zal bo’lsin, bu so’zni xalq qabul qilsin.

Xaloyiq sening so’zing bilan baland darajaga erishganingni bilsin, chunki kishining martabasini so’z orqali biladilar, har kishining ahvoli o’z so’zi ostida yashiringan bo’ladi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari nutqini o’stirish masalasi hozirgi uslubiy adabiyotlarda til, lug’at boyligi va nutq madaniyati haqida bilimlarga turlicha yondashuvlar asosida hal qilinadi.

Boshlang’ich sinf ona tili dasturiga kiritilgan lingvistik tushunchalardan kelib chiqib, mashqlarni fonetik, leksik, so’z yasalishi, morfemik (so’z tarkibi), grafik, orfografik, orfoepik, grammatick mashqlarga ajratish mumkin.

Mazkur mashqlar asosida amalga oshiriladigan tahlil o’quvchilarning nazariy tushunchalarni o’zlashtirishlariga yordam berishi, lug’atini boyitishi, bog’lanishli nutqini o’stirishi jihatidan keng qamrovli bo’lib, o’quvchilarning tilni har tomonlama

O’zlashtirishlarini ta‘minlashini nazarda tutadi.Ta‘kidlash kerakki, boshlang’ich sinf Ona tili darsliklaridagi mashq matnlarining tilini, ular yuzasidan ishlab chiqilgan savol-topshiriqlarni tahlil qilish, ularning o’quvchilar nutqini tadrijiy ravishda o’stirib borish imkoniyatiga ega emasligini ko’rsatdi. Ona tili darsliklaridagi barcha mashq matnlari nazariy bilimni mustahkamlash va kengaytirishga yordam bersa-da, O’quvchilar lug’atini boyitish,nutqini o’stirish, tilni amaliy egallashlariga zamin, asos bo’la olmaydi.

Mashqlarning bir tizim sifatida mukammallik kasb etmagani, nazariy ma‘lumot berishga mo’ljallangan terma to’qima gaplardan tuzilgani, shubhasiz, mashqlarning bog’lanishli nutqni egallashga ijobiy ta‘siri kam. Oddiy so’zlashuv nutqi shaklidagi qashshoq matn o’quvchi nutqini boyitish uchun manba bo’la olmaydi.

O’quvchilarning o’zbek adabiy tilini egallashlari mashq matnlarining badiyligiga, til komponentlariga boyligiga bog’liq.

Darslarni didaktik o’yinlar vositasida olib borish bolalarning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko’mak beradi. Yangi dars boshlanishida yoki o’tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o’yinlardan foydalanib, o’quvchilarning darsga bo’lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

Quyida boshlang’ich sinf ona tili darslarida qo’llash mumkin bo’lgan o’yin namunalarini keltiramiz:

Zanjirli o’yini. O’qituvchi tilda mahnodoshi bo’lgan so’z aytadi, o’quvchilar parta ketma-ketligida unga ma‘nodosh so’zni topib aytadilar.

Ma'nodoshi qolmagan paytda navbatdagi o'quvchining o'zi tilda ma'nodoshi bor so'z aytib o'yinni davom etishiga yordam beradi. Bir qator parta o'quvchilari bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin. O'yin ketma-ketlikda davom ettiraveriladi. Masalan, bir qatorda 10 ta o'quvchi o'tirgan bo'lsa uchta, to'rtta mahnodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin.

### Bolalar nutqini rivojlantirish va uni o'stirish metodi

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobilyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont'ev).

Ilmiy tadqiqotlar va yo'nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o'rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Barcha tadqiqotchilar bola nutqini va uning rivojlanishini alohida ajratilgan holda emas, balki katta yoshli kishining bolaga pedagogik ta'siri bilan o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqadilar. Ushbu yondashuv o'rnlidir, zero, fandagi zamonaviy tadqiqotlar nutqni o'zlashtirish va ijtimoiy o'zaro hamkorlik – o'zaro bog'liq jarayonlardir, nutqni rivojlantirish esa – ijodiy jarayon, biroq u stixiyali jarayon emas, degan fikrga asoslanadi.

Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtiroy etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o'rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo'yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro'y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarda nutq rivojlanishini rag'batlantiruvchi yoki unga to'sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir ko'rsatishni tashkil etish kalitidir.

V.I.Loginova, Y.S.Lyaxovskaya, V.V.Gerbova, Ye.M.Strunina va boshqalarning tadqiqotlarida bolalar ona tili leksikasini o'zlashtirib olishlarining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning lug'atni o'zlashtirishlarida ikki jihat ajratib ko'rsatilgan: atrofdagi olam lug'atini (so'z boyligini) anglash bilan birligida rivojlantirish; lug'atni til birligi sifatida o'zlashtirish. Ular predmetli aloqalar va munosabatlar mantig'ida ham, til mantig'i borasida ham so'z ustida ishlash zarurligini isbotlab berishgan.

Nutqni egallab olishning eng muhim bosqichlari mактабгача yoshga to‘g‘ri keladi. Shundan kelib chиqqan holda, hozirgi paytda nutqni rivojlantirishdagi ayrim bosqichlarni o‘рганишга alohida e’tibor qaratilmoqda. Olimlar nutqqacha bo‘lgan bosqich muhim rol o‘ynashini tushunib yetib, uni batafsil tahlil qilmoqdalar.

Bolalar nutqining grammatik tuzilishi sohasidagi tadqiqotlar bolalarda nutqning morfologik va sintaktik tomonlarini shakllantirish (F.A.Soxin, M.I.Popova, A.V.Zaxarova, V.I.Yadeshko, A.G.Tambovseva va boshq.), ona tilining so‘z hosil qilish tizimi xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, bolalar nutqining grammatik tuzilishini takomillashtirishga oid pedagogik ishda nafaqat odatdagi grammatik xatoliklarni o‘рганиш ва tuzatishga, balki birinchi navbatda grammatik umumlashmalarni shakllantirishga e’tiborni qaratish zarurligini isbotlash imkonini berdi.

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: Nutqni «rivojlantirish jarayoni bola lug‘atining va so‘zlarning assotsiatsiya asosida bog‘lanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o‘zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog‘langan holda so‘zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir»

Nutq ontogenezi haqidagi zamонави tasavvurda bola nutqini rivojlantirish, bir tomondan, tashqi ta’sirlar bilan belgilanishi, o‘zga tomondan esa – to‘sатдан yuz berishlik, «o‘zini-o‘zi harakatga keltirish» bilan tavsiflanishi tushuniladi. Bolalarning passiv nutqni o‘zlashtirib olishlari va ularning dastlabki so‘zni aytishlari hal qiluvchi darajada quyidagi uch jihatga, ya’ni emotсional aloqalar, birgalikdagi harakat chog‘идаги aloqalar, tovushli aloqalardan iborat bo‘lgan kommunikativ omilga bog‘liq bo‘ladi.

### **Bolalar nutqini o‘stirishga oid nazariy ishlар.**

Respublikamizda maktabgacha ta’lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Shu bois ta’lim tizimining ilk bo‘g‘iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta’lim tizimi tarbiyachilar bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi hamda tajribasinovalarida yuqori baholangan o‘quv-metodik materiallarga ega. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutq va tafakkurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli masalalar qamrab olingan.

### **Bolalarni dialogik nutqqa o‘rgatish muammolari.**

Dialogik nutq ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasida amalga oshiriladi. Nutqning bu ko‘rinishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega, bu nutq keng jumlalarni talab etmaydi. Shuning uchun dialogik nutq tarkibida to‘liqsiz gaplar juda ko‘p bo‘ladi. Bunday nutq tarkibida so‘roq va undov gaplar ham uchraydi.

Dialogik nutqning mazmuni va vazifalari:

Dialog – suhbat bolaning kattalar va o‘z tengdoshlari bilan muloqotining asosiy shakli hisoblanadi

Bolalar bog‘chasida o‘qitish ikki shaklda amalga oshiriladi:

- a) erkin nutqiy muloqot
- b) maxsus mashg‘ulotlarda

Dialog ko‘proq erkin nutqiy muloqotda paydo bo‘ladi va u bolalar lug‘atini boyitishning talaffuzga oid grammatik ko‘nikmalarini tabiiy ravishda rivojlantirish, ravon nutq ko‘nikmalariga ega bo‘lish bazasi hisoblanadi. Dialog maxsus mashg‘ulotlarda o‘qitiladi (oyiga 1–2 ta mashg‘ulot); Bolalar bog‘chasida bo‘lib turgan vaqt mobaynida bola erkin muloqotda pedagog va boshqa bolalar bilan muloqotga kirishadi. Uyda esa kattalar bola bilan turli mavzularda dialogga kirishishlari lozim. Dialogik nutqni (yoki og‘zaki nutqni) o‘rgatish odatda suhbat shaklida, ya’ni kattalar bilan bola o‘rtasida hamda bolalarning o‘zlari o‘rtasida fikr almashish shaklida ro‘y beradi.

Dialogik ravon nutqni rivojlantirishga doir maxsus mashg‘ulotlar suhbat metodi (suhbat) va imitatсиya metodi asosida o‘tkaziladi. Mazkur metodlar ko‘pincha quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:

Tayyorgarlik suhbat (so‘zlashish) usullari; Teatrlashtirish usullari (imitatsiya, qayta aytib berish).

### Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil fevraldagи “O’zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-son Farmoni
2. Masharipova U. Formirovanie kommunikativnqx kompetentsiy mladshix shkolg‘nikov na osnove razvitiya svyaznoy rechi // XIII mejdunarodnoy konferentsii —Obrazovanie cherez vsyu jizng‘: neprerqvnoe obrazovanie v interesax ustoychivogo razvitiya №13-ya mejdunarodnaya konferentsiya. Sankt-Peterburg. (LGU) 2015. –S. 116-117
3. Muhiddinov A.G. O’quv jarayonida nutq faoliyati. –T.: O’qituvchi. 1995. 80-b
4. Nisanbayeva A.Q. O’zbek tili darslarida matn vositasida o’quvchilar nutqini o’stirishning metodik asoslari
5. Nishonaliyev U.N. Ta`lim standarti va pedagogik innovatsiyalar // Xalq tahlimi j. – T.: 1999. 6-son. – 28-31-b.
6. Nurullayeva Sh.U. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o’quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasi. ped. f. n. dissertatsiya, Qarshi: 2008. 145 b.